



## ALISHER NAVOIY VA ABDURAHMON JOMIY O'RTASIDAGI BUYUK DO'STLIK NAMUNASI

*Hamraqul BERDIQULOV\**

### Annotation

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi adabiy, ma'naviy va madaniy aloqlar tarixida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik rishtasi hamda ustoz va shogirdlik munosabatlari alohida va yorqin sahifalarni tashkil etadi. 15-asrda Xuroson Temuriylar davlati poytaxti Hirotda yashab ijod etgan bu ikki buyuk shoir va mutafakkirlar o'zlarining samimiy, do'stona munosabatlari, ijodiy hamkorligi va tasavvuf ilmidagi hamfikrliligi bilan o'zbeklar va tojiklar o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik aloqlari tarixida yangi sahifa ochgan edilar. Bu barhayot an'ana bugungi kunda davom etib kelmoqda va ushbu ikki qardosh xalq o'rtasidagi, ikki madaniyat va adabiyot o'rtasidagi abadiy do'stlikning tamallari bo'lib xizmat qilmoqda. Maqolada ana shu buyuk do'stlik va uning adabiy aloqalarda namoyon bo'lishi tahlil etilgan.

**Kalit So'zlar:** Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, O'zbek Adabiyoti, Tojik Adabiyoti, Adabiy-Madaniy Aloqalar, Qasida, G'azal.

## ALI ŞİR NEVAYİ VE ABDÜRRAHMAN CAMİ ARASINDAKİ DOSTLUK ÖRNEĞİ

### Özet

Orta Asyadaki iki kardeş ulus - Özbekler ve Tacikler arasındaki edebî, manevi ve kültürel ilişkilerin tarihinde Abdürrahman Cami ve Ali Şir Nevayî'nin arasındaki yüce arkadaşlık, ustad-öğrencilik bağları özel yere sahiptir. 15.yüzyılda Horasan Timurlu Devleti'nin başkenti Herat'ta yaşayıp Müslüman Doğu edebiyatının gelişmesinde önemli rol oynayan bu iki büyük şair ve düşünürün arasındaki samimi dostluk, iş birliği ve tasavvuf alanındaki hemfikirlilik Özbekler ve Tacikler arasındaki çok eski dostluk ilişkilerini daha da pekiştirmiş, yeni sayfalar açmıştır. Bu kutsal gelenek bugünkülerde de devam etmeye olup, Nevayî ve Molla Cami arasındaki dostluk örneği yeni dönemde hızlı gelişen Özbek-Tacik medeniyeti ve edebiyatı iş birliğinin temellerini oluşturmaktadır.

**Anahtar Kelimeler:** Abdürrahman Cami, Ali Şir Nevayî, Özbek Edebiyatı, Tacik Edebiyatı, Kültür ve Edebiyat İlişkileri, Kaside, Gazel.

## A EXAMPLE OF FRIENDSHIP BETWEEN ALISHER NAVOI AND ABDURRAHMAN JAMI

### Abstract

In the history of friendship between the Uzbek and Tajik peoples, a special place is occupied by friendly relations, literary cooperation and spiritual affinity between Abdurrahman Jami and Alisher Navoi. These two great figures of Oriental literature lived and worked in the 15th century, in the capital of the Khorasan Timurid state, in Herat, and all their lives they have collaborated in the works and public affairs. They were great writers and thinkers of the time, and it was they who initiated the Uzbek-Tajik friendship that flourishes today.

\* Dr. Öğr. Gör., Semerkant Devlet Üniversitesi / ÖZBEKİSTAN, el-mek: hamraqul@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-3331-5127>

**Key Words:** Abdurrahman Jami, Alisher Navoi, Uzbek Literature, Tajik Literature, Cultural and Literary Ties, Kaside, Gazel.

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi adabiy, ma'naviy va madaniy aloqalar tarixida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik rishtasi hamda ustoz va shogirdlik munosabatlari alohida va yorqin sahifalarini tashkil etadi. Fors-tojik mutafakkir shoiri Abdurahmon Jomiy 1491-yilda Alisher Navoiy taklifi bilan uch devonini bir jildga jamlab, ularga debocha yozadi. Jumladan, Alisher Navoiyning fors tilida yaratilgan "Tuhfatul afgor" qasidasi Jomiya bag'ishlangan edi. Bu Jomiyni yanada to'lqinlantiradi va u boshidan oxirigacha muammo janridagi bir qasida yaratadi:

*Joh dori johiloso dar sar, ey komil mudom,*

*Jaholat xonam, na komil, chun turo joh ast kom.*

Bu she'riy misralardan quyidagi ma'nolarni anglash mumkin:

***Ey o'zini komil inson sifatida hisoblagan odam, johillar kabi boshingda mansab (joh) g'ami bor. Seni komil emas, johil deyman, chunki maqsading mansabdir.***

Demak, ma'lum bo'ladiki, Jomiy turkiy tilni o'z tilidek yaxshi bilgan, bu tilda yaratilgan asarlarni maroq bilan o'qib zavqlangan, eng muhimi yana shundaki, Jomiyning tatabbo' janrida yozgan g'azali ham el orasida katta shuhrat topadi.

Shuni aytish joizki, Navoiy Jomiy g'azaliga musaddas bog'laganda, o'z taxallusini keltirmagan. Bu o'sha davr she'riy an'anasiga zid edi. Chunki, boshqanining g'azaliga muxammas bitilganda yoki musadda bog'laganda, o'z taxallusini qo'shish lozim bo'lган.

Ushbu adabiy hodisa, bir tomondan, Navoiy ijodiy salohiyatining bemisl qudrati, uning asarlari qadr-qimmatini, Navoiy bilan Jomiy orasidagi mehr-muhabbat, zehnu zakovat, adabiy maslak va qalb yaqinligini bildirsa, ikkinchi tomondan, bu ikki buyuk adibning bir-biriga bo'lgan chuqur hurmati, umr iste'dodi mevalarini ko'paytirish sari qilgan harakatlari namunasini ko'ramiz (Bertels, 1965:34-41).

Avvalo shuni aytish lozimki, Sharq dostonchiligidagi eng ko'p qalamga olingan mavzu Layli va Majnunning fojeali muhabbat tasviridir. Navoiyning bu dostoni ustoz Jomiyning "Layli va Majnun" dostoni bilan bir muddatda, ya'ni 1484-yilda yozilgan. Mavzusi bir xil bo'lgan ikki original asar vujudga kelganini ko'rish mumkin. Ikkala dostonda ham Layli va Majnun muhabbat tasvirlangan. Ammo ikkala doston ham bir-biridan jiddiy farq qiluvchi xususiyatlarga egadir. Bu farq dastlab asarlarning tuzilishida ko'zga tashlanadi. Avvalo hajm jihatdan, Jomiy dostonida 3860 bayt bo'lsa, Navoiy asarida 3622 baytdan iborat (Asadullayev, 1981: 23-31).

Ma'lumki, tazkirachilik an'anasi ming yillik tarixga egadir. Dastlabki tazkira arab tilida yozilgan bo'lsa, keyingi tazkira fors-tojik tilida yaratilgan, ammo hazrat Navoiy XV asrda tazkirachilikni yangi bosqichga ko'tardi, ya'ni u "Majolis un-nafois" asarida zamondosh adiblar haqida ham tazkiralarni yaratish mumkinligini va bu eng maqbul usul ekanligini isbotlab berdi.

Mavlono Jomiyning Sa'diy Sheroyi qalamiga mansub axloqiy mavzusidagi "Bo'ston va Guliston" asarlariga javob bag'ishlab: 1487-yilda yozgan "Bahoriston" asarini 7-ravzasini haqiqiy ma'noda tazkira deyish mumkin. Jomiy va Navoiy hazratlarining bir-birlarga g'oyat hurmat qilishlari va ko'p jihatdan ijtimoiy-siyosiy, adabiy-falsafiy, estetik masalalarda ham fikr, sirdosh, bir-birlariga nisbatan ham ustozlik va shogirdlik burchini to'laqonli holda bajargan (Comiy, 1988: 123-150).

Shuni aytish lozimki, har ikkala shoirning asosiy mavzulari xalqparvarlik, gumanizm, odamiylikni ulug'lash, yovuzlik va jaholatni qoralash, yaxshilik vaadolatni madh etish, insoniy

muhabbatni kuylash, inson his tuytg‘ularini ifodalash bo‘lgan. Shuning uchun ham Navoiy ijod masalalari, ijtimoiy-siyosiy muammolar yuzasidan Jomiyga murojaat qilsa, Jomiy esa o‘z bitiklarini o‘zi maslakdoshi Navoiyga o‘qish uchun berar edi, Navoiy esa o‘zini ustozni bitiklarini sinchkovlik bilan kuzatar edi. Jomiy o‘gitlaridan Navoiy astoyidil sevinib, ularni bajonidil qabul qilganidek, Navoiyning istak va takliflaridan Jomiy ham mammun bo‘lgan.

Aytish joizki, keltirilgan barcha vajlar Jomiyning e’tiqodi, komil inson va mamlakatni boshqarish haqidagi konsepsiyasini ruhlantira olishi, ma’naviy va ma’rifiy qudratini yuqtira olishini izohlashi jihatidan xarakterlidir.

O‘zbek xalqini taniqli shoiri G‘afur G‘ulom 1964-yil Afg‘onistonda o‘tkazilgan xalqaro oliv anjumanida “Sharqning buyuk mutafakkiri” deb ta’rif bergen edi: “Jomiy ijodiy merosining qudrati, nozik qirralari, buyuklik xislatini, insoniy, falsafi, “zabardast karvonlarni hansiratib qo‘yuvchi” jild-jild asarlardagi xilma-xillik, yuksak mahorat va teran mazmunni his etgan G‘afur G‘ulom undan she’riy mahorat sirlarini o‘rgangan”. G‘afur G‘ulom Navoiy va Jomiy yaqin munosabatlari milodiy 1469-yildan boshlanib, 1478-yilda mustahkamlanganligini qayd etadi (G. Gulom, 1987: 104-108)

Abdurahmon Jomiy Navoiy uchun ideal-komillik timsoli. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ko‘p o‘rinlarda Navoiy mubolag‘a san‘atining mohir ustasi bo‘lib ko‘rinar edi. Aslida unday emas. Navoiyning nazarida Jomiy hech bir mubolag‘asiz ana shu ta’riflarga munosib:

*Ne kamolat aro nihoyat anga,*

*Ne marotibda haddu g‘oyat anga.*

Komillik inson ziynatidir. Biroq unga erishish mashaqqatli va bir umr davom etadigan jarayon. Masalan, Navoiy “Farxod va Shirin” dostonida Jomiy madhini bitar ekan, Navoiy o‘z murshidining bu yo‘lda unga madad berishini istab shunday yozadi:

*Ham ul gavhar bilan ko‘nglin yorutqil,*

*Ham ul shakkar bila komil chuchutgil.*

\*\*\*

*Kelturgul, soqiy, ul jomi kiromiy*

*Ki tutsun rindlar sorxayli Jomiy.*

\*\*\*

*Chu piri day may qilsa havola,*

*Icharmen gar erur gardun piyola.*

Bu kabi istaklarni Navoiy deyarli har bir dostonida izhor qiladi. Nizomiy va Dehlaviylar ham Jomiyning madadinini istab quydagi bitiklarini bayon etgan:

*Botin ila qilmasa ul ikki rad,*

*Zohir ila bu biri qilsa madad.*

*Yo ‘ldosh, bu yo ‘lda Nizomiy yo ‘lum,*

*Quldasa, Xisrav bila Jomiy qolum.*

Muhimi shundaki, Jomiy madhini bitayotgan Navoiy o‘zining “Xamsa” yoza olish qudratiga ishonadi. Bunga Jomiyning shoirga bildirgan ishonchi asosiy sabab bo‘lsa ajab emas.

*Lek menga oldida ajzu niyoz,*

*Barcha ulusdin beribon imtiyoz.*

\*\*\*

*Gulbun uza har ne gul ochti chaman,  
Avval aning hamdamni bo'ldi tikan.*

Zero, “Xamsa” yaratishni boshlagan Navoiy Jomiyni har jihatdan mukammal, yuksak, qudratli bir siymo deb, tasavvur etardi:

*Qaysi jahon olami Kubro degil,  
Qudrati Ollohu taolo degil.*

Bu ta'rif Jomiy uchun berilgan eng oily baho bo'lsa ajab emas. Navoiy Jomiyda yuz filning kuchi bor, deb ta'rif beradi.

Har bir dostonda Jomiyning muayyan bir fazilati Navoiyning komil inson haqidagi tasavvurlariga uyg'un holda ifodalanadi:

*Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,  
Koshifi asrori haqiqatdur ul.*

deb boshlangan edi (Navoiy, 1960: 87, 103, 154).

Navoiy “Hayrat ul-abror” baytlarida ‘tariqat ilmining qutbi-markazi, haqiqat sirlarini ochuvchi zot’ deb ta'riflagan Jomiy chindan ham zohiru botin ilmini muakkammal bilgan, zamonasing eng mashhur kishisi edi. Hazrat Navoiy o'ziga pir deb bilgan bu inson murshidlari Sa'diddin Qashg'ariy qo'lida, Xo'ja Ahror Valiy rahnamoligida kamol topdi.

Naqshbandiylik tariuqatining asoslari mohiyatini to'g'ri anglagan Jomiy umrini ushbu ta'limot g'oyalarini targ'ib etishga bag'ishladi. Hayotning mazmun-mohiyatini ana shu tariqatning yuksak maqomlaridan topdi. O'z asarlariga uning g'oyalarini singdirdi. Bu haqida bag'ishlovlarda ko'plab ta'kidlarni uchratish mumkin:

*Jilvagohi charxi barin,  
Obxo 'ri chashman aynul-yaqin.* (Comiy: 1988, 233-235)

Biroq, Navoiy ta'kidlaganidek, eng pokdomon, nafs qutqularida ozod bir zot – Jomiy namoyon bo'ladigan maskan – yuksak osmon, u suv ichadigan chashma esa – aynul-yaqin bulog'i, shoir bu baytda o'z ijodiy mqsadini aynul-yaqin birikmasining poetik imkoniyatlaridan foydalangan holda ifodalaydi.

Jomiyini aynul-yaqin ahlidan deb bilgan shoir “ayn”ning chashma ma'nosini ham e'tibordan soqit qilmaydiki, u bahramand bo'layotgan buloqning tunganmas manba ekanligiga ishora. Bu esa uni ilohiy bilmilar bilan bog'lashga imkon yaratadi. Jomiyning kiyinishi, yashash tarzi, aytayotgan so'zları ham ana shu yuksak maqomga muvofiq:

*Libosi fahri keng yuz jahondin,  
Jahonsilki kelib bir rishta ondin* (Navoiy, 2004:65).

Jomiy asarlariga bunday yuksak baho berayotgan Navoiy boshqa bir o'rinda o'zining “Xamsa” yaratish orzu-maqsadlari haqida so'z yuritar ekan shunday degan edi:

*Ne tubiga naqb bo'lib sudmand,  
Ne yetibon ko'ngirasiga kamand.*

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida shoirlar haqida fikr uritib, shunday yozgan edi: “*Haqiqat va majoz tarixida komil va ilmi ikkalasi tarixida vofiy va shomil, nazm ahlining muhitida va imomi hazrati shayx ul islam Maylona nur ul millati va din Abdurahmon al-Jomiydurkim, olamda zavqu ham ahli bular latoyifi bila masrurdurlar va bular maorifi bila huzur qilurlar*”, Jomiy kamoloti uning ilmi bilan boglab:

*Ilmni aning tengizga qilsa xitob,*

*Mutlaq ulg‘ay demak dengizni sarob’* (Navoiy, 1992: 176-182).

Ma'lumki, Jomiyning “Suxbat ul-abror”, “Silsilat uz-zahob”, “Yusuf va Zulayxo” dostonlari va yana ko‘plab asarlar haqida so‘zlagan Navoiy uning nazm va nasrdagi mahoratiga alohida e’tibor beradi:

*Ham nazmnинг nasrдек kelib xub.*

*Ham nasrning nazмdек diloshub.*

*Vale masnaviy o‘zga olamdurur*

*Ki tab’ig‘a holo musallamdurur.*

Xullas, bir-biriga uyg‘un yaxlit asarga qiyoslash mumkin bo‘lgan. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlaridagi Abdurahmon Jomiy madhlari ayni paytda o‘ziga xos alohida xususiyatlarga ega. Ularni o‘rganish Jomiy siyemosini mukammal idrok etishga, Navoiy ijodiy olamini yanada chuqurroq anglashga imkon berdi.

### **Adabiyotlar**

- ASADULLAEV, S. (1981). *Layli i Majnun v farsiyaziçnoy literature*. Duşanbe: Doniş.
- ALIŞER NAVOIY. (2004). *Xamsat ul-mutahayyirin*. Taşkent: Adabiyot va san’at.
- ALIŞER NAVOIY. (1992). *Mukammal asarlar toplami*. 20 tomlik, 9-tom. Toşkent: Fan.
- ALIŞER NAVOIY. (1960). *Xamsa*. Toşkent: FA naşriyoti.
- BERTELS, E. (1988). *Navoi i Djami*. – Moskva: Vostočnaya literatura, 1965
- GULOM GAFUR. (1987). *Mukammal asarlar toplami: 12 tomlik. T. 7: Oçerkclar, publisistika /Mas’ul muharrir: S. Erkinov*. Toşkent: Fan.
- OSOR. “COMIY” Dar 8 cild. Cildi 5. Duşanbe: Adib.